



YOSHLAR O‘RTASIDA V PARAOSIYO O‘YINLARI G‘OLIBLARI – O‘ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI A‘ZOLARIGA

Qadrlı qahramon o‘g‘il-qizlarim!

Hurmatli ustoz-murabbiylar!

Muhtaram ota-onalar!

Avvalo, barchangizni V Yoshlar Paraosiy o‘yinlarida

erishilgan ulkan tarixiy g‘alaba bilan chin qalbidan

samimiy muborakbod etaman.

Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida

qit‘amizning 35 ta davlatidan kelgan 1 ming 500 nafardan

ziyod sportchilar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan g‘oyat keskin

bellashuvlarda sizlar jasorat va matonat fazilatlarini

namoyon etib, musobaqalarning chinakam qahramonlariga

aylandingiz va O‘zbekiston paralimpiya harakati tarixida

yana bir yorqin sahifa ochdingiz.

Ushbu nufuzli sport anjumanida sizlarni ko‘p millatli

butun xalqimiz qo‘llab-quvvatlab, barchangizga zafar va

omadlar tilab turdi.

Ana shunday yuksak ishonchni sharaf bilan oqlab,

99 ta oltin, 57 ta kumush, 41 ta bronza medal bilan

umumjamoa hisobida Osiyo qit‘asida 1-o‘rinni egallab,

g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarilganingiz muborak bo‘lsin!

Tumir davomida O‘zbekiston madhiyasi qariyb

100-marta yangragani sizlarning Vatanimiz shuhratini

dunyoga tarannum etishga qanday beqiyos hissa

qo‘shganingizdan dalolatidir.

Sizlar ulkan azm-u shijoatingiz, bukilmas iroda

va intilishingiz bilan Osiyoning milliy sporti jadal

rivojlanayotgan Eron, Yaponiya, Tailand, Indoneziya kabi

davlatlari jamoalarini ham ortda qoldirishga muvaffaq

bo‘ldingiz.

O‘zbekiston Paraosiy o‘yinlari tarixida bunday

rekord natija, bunday buyuk zafar ilgari hech qachon

bo‘lmagan edi. Hech shubhasiz, sizlar yurtimiz sportida

shonli tarix va an‘analari yaratayotgan yoshlar, mohir

mutaxassislar sifatida yuksak tahsin va tasannolarga

munosibsiz.

Butun xalqimiz, jonajon Vatanimiz sizlar bilan

faxrlanadi. Sizlar O‘zbekiston paralimpiya harakatining

oltin avlodi, oltin vakillariz.

Bunday qahramon yoshlarimizga shon-sharaflar

bo‘lsin!

Ayniqsa, para pauerliftingchi o‘g‘il-qizlarimiz

Bahriddin Xolbo‘tayev, Elbek Farhodov, Oyshajon

Rajabboyeva, Ruxshona O‘ktamova o‘z vazn

toifalarida jahon rekordini, Nurillo Inobiddinov, Ezoza

Abdujabborova, Azizbek Perdebayev, Ruxshona

O‘ktamova, Ziyodaxon Boqijonova, Zuhra Yuldasheva,

Gulyuz Nematullayeva esa Osiyo rekordini o‘rnatganlarini

alohida ta’kidlash lozim.

Yana bir muhim tarixiy natija — sportchi qizlarimiz

Madina Muxtorova, Farog‘at Muxammadqulova,

Mohichexra Ibragimova para yengil atletikaning yadro

va nayza uloqtirish dasturlari doirasidagi murosasiz

bahslarda raqiblariga mutlaqo imkoniyat qoldirmasdan

butun medallar jamlanmasini O‘zbekistonga olib keldilar.

Bularning barchasi — sizlarning tinimsiz mehnatingiz,

bukilmas irodangiz, iste‘dod va mahoratningiz, qolaversa,

yurtimizda inson qadriini amalda ta‘minlashga qaratilgan

tizimli ishlarimiz natijasi, desak, ayni haqiqatni aytgan

bo‘lamiz.

Sizlar erishgan ulkan zafar Yangi O‘zbekiston yoshlari

qanday katta marallarni egallashga qodir ekanini amalda

yana bir bor ko‘rsatgani bilan ham g‘oyat ahamiyatlidir.

Bu g‘alaba, hech shubhasiz, minglab yoshlarimizga g‘urur

va iftixor, intilish va ilhom manbai, katta tajriba maktabi

bo‘lib xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, sizlarni mana shunday bahodir,

doviyurak va pahlavon farzandlar etib tarbiyalagan, ezu

intilishlaringizni doimo qo‘llab-quvvatlab kelayotgan ota-

onalaringiz, mohir va jonkuyar murabbiylaringizga, barcha

muxlislaringizga chin dildan minnatdorlik izhor etaman.

Aziz sportchi o‘g‘il-qizlarim,

Qadrlı murabbiylar!

Xabaringiz bor, yaqinda mamlakatimizda Paralimpiya

harakatini yanada rivojlantirish bo‘yicha maxsus qaror

qabul qildik.

Ishonchim komil, ushbu qaror sizlarning kelgusi

faoliyatingiz uchun qo‘shimcha ravishda yangi

sharoit va imkoniyatlar yaratish, sport olamidagi

yutuqlaringiz salmog‘ini yanada oshirishga xizmat

qiladi.

Yana bir muhim jihati — so‘nggi yillarda Ijtimoiy

himoya milliy agentligini tuzib, alohida Adaptiv sport

turlari assotsiatsiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘ydik.

Shuningdek, ushbu tizimda Matonat maktabi hamda

sohada mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha institut tashkil

qildik.

Natijada adaptiv sport turlaridagi yo‘nalishlar soni

89 taga yetkazilib, yurtimiz mahallalarida ushbu sport

turlari bilan doimiy shug‘ullanuvchilar soni 45 mingdan

oshdi.

Yurtimizda inklyuziv jamiyat barpo etish,

nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini

ta‘minlashga qaratilgan islohotlarimiz albatta izchil

davom ettiriladi.

Vatanimizga yuksak mehri va sadoqati, mustahkam

iroda va matonati bilan millionlab farzandlarimizga o‘mak

bo‘layotgan sizlardek qahramon o‘g‘il-qizlarimni Yoshlar

o‘rtasidagi Paraosiy o‘yinlarida qo‘lga kiritgan tarixiy

g‘alabangiz bilan yana bir bor chin qalbidan qutlab,

barchangizga sihat-salomatlik, kelgusi faoliyatingizda

ulkan omad va zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KAPITAL BOZOR VA BANK SOHASIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev kapital bozorini yanada rivojlantirish hamda bank sohasida xalqaro standartlarni joriy etishni jadallashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda muomaladagi qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymati 275 trillion so‘mni tashkil etib, birjada erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar hajmi 4 trillion so‘mga yetdi, bozorda 717 ta emitent va 77 ta professional ishtirokchi faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, kapital bozorining kapitallashuv hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 20 foizni tashkil etib, jahon ko‘rsatkichlaridan ancha past ekani, mazkur sohada hali katta salohiyat mavjudligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shu munosabat bilan mahalliy kapital bozoriga kamida 1 milliard dollar investitsiya jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Jumladan, mahalliy va xorijiy fond birjalarida xalqaro standartlar asosida qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish — “dual listing” amaliyotiga ruxsat berish, shuningdek, valyuta obligatsiyalari, global depozitar tilxatlar, xorijiy qimmatli qog‘ozlar hamda birja investitsiya fondlari kabi yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish rejalashtirilgan.

Davomi 2-betda

SUV XO‘JALIGIDAGI DOLZARB MASALALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 15-dekabr kuni suv xo‘jaligida energiya samaradorligini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ishlari yuzasidan axborot berildi.

Avvalo, eskirgan va energiya sarfi yuqori nasos agregatlarini zamonaviy, energiya tejamlariga almashirish bo‘yicha rejalar ko‘rib chiqildi.

Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 274 ta nasos stansiyasi mavjud bo‘lib, ular orqali 185 ming gektardan ortiq yer maydonlari sug‘orilmoqda. Stansiyalardagi nasos agregatlarining yarmidan ko‘pi 1979-yildan buyon ishlab chiqarilgan uskunalaridan iborat, ularning energiya sarfi zamonaviy nasoslarga nisbatan 2-3 barobar yuqori.

Kegeyli tumanidagi eski agregatlardan biri zamonaviy energiya tejamlariga almashirilganda, elektr energiyasining sarfi ikki barobarga kamaygan.

Ushbu ijobiy tajribadan kelib chiqib, Qoraqalpog‘istondagi 276 ta nasosni bosqichma-bosqich zamonaviy energiya tejamlariga almashirish rejalashtirilgan. Natijada yillik 25 milliard so‘mga teng elektr energiyasi iqtisod qilinishi va loyiha sarf-xarajatlari 14 oy ichida o‘zini oqlashi ta’kidlandi.

Davomi 2-betda



Iftixor



Prezidentimiz “Paralimpiya o‘yinlari – bu chinakam iroda, jasorat va matonat, ezgulik va gumanizm namoyishi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi”, degan edi.

Yangi O‘zbekiston ezgulik va gumanizmga asoslangan yo‘lida qat‘iy pozitsiya bilan olg‘a bormoqda. Bu faktni “Dubay — 2025” yoshlar paraosiy o‘yinlarida yosh sportchilarimiz yana bir karra isbotladi. Jamoamiz 99 ta oltin, 57 ta kumush va 41 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, tarixiy natijaga erishdi. Osiyo sportida jadal rivojlanayotgan Eron, Yaponiya, Tailand, Indoneziya kabi davlatlarni ortda qoldirib, umumjamoa hisobida 1-o‘rinni egalladi. Shu orqali yoshlarimiz para sport tarixida yangi sahifa ochdi.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON PARALIMPIYA HARAKATINING OLTIN AVLODI XALQIMIZ, JONAJON VATANIMIZ SIZ BILAN FAXRLANADI



SHONLI TARIXDAN SHARAFLI KELAJAK SARI

Yakuniga yetib borayotgan 2025-yil yangi O‘zbekiston tarixida yana bir sahifa ochdi. Sportchilarimiz Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida V Yoshlar Paraosiy o‘yinlarida tarixiy g‘alabaga erishdi. Shu orqali ular bir necha rekordlarni yangilab, Osiyo qit‘asida 1-o‘rinni egalladi.

Paralimpiya tarixidagi shonli g‘alabaga erishgan sportchilar “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida kutib olindi.

“Olimpiya shaharchasi”da tashkil etilgan taqdirlash marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning V yoshlar Paraosiy o‘yinlarida ishtirok etgan yosh para sportchilarimizga yo‘llagan tabrigini Oliy Majlis

Senati Raisi Tanzila Norboyeva o‘qib eshittirdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sport bo‘yicha vakili Odil Abdurahmonov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansur Olloyorov ishtirok etdi.

Davomi 3-betda

“Saodat” jurnalining 100 yilligiga

Kuni kecha poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida “Saodat” jurnalining 100 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. “Bir asrlilik ma‘rifat bayrami” mavzusida tashkil etilgan marosimda davlat va nodavlat tashkilotlar, keng jamoatchilik vakillari hamda jurnal muxlisarlari ishtirok etdi.

KO‘NGILLARGA MA‘RIFAT, ADABIYOT VA TARBIYA ULASHGAN NASHR

Bir asrlilik faoliyati davomida “Saodat” jurnali sahifalarida mamlakatimiz, umuman, Sharq ayollarining hayoti, ijodi, erishgan yutuqlari, tashabbus va ixtirolari, qolaversa, turmush mashagqatlari orasida kechgan quvonch va iztiroblari xalqchil uslubda yoritib kelinmoqda. Jurnalning ilk soni 1925-yil 1-dekabrda “Yangi yo‘l” nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik u turli yillarda “Yorqin turmush”, “Yorqin hayot”, “O‘zbekiston xotin-qizlari” nomi bilan nashr qilingan. Mamlakat ayol-qizlarining intilishi va istagiga hamohang tarzda 1966-yildan ushbu nashr “Saodat” deb yuritildi.

Mustaqillikdan so‘ng jurnal faoliyatida yangi davr boshlandi. Unga yangi nafas kirib keldi, mazmunan yangi mavzular bilan boyidi.

Tantanali tadbirda Bosh vazir o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Zulayho Mahkamova “Saodat” jurnali ijodiy jamoasini qutlug‘ sana bilan samimiy qutlar ekan, bir asr davomida nashr o‘zbek xotin-qizlarining ma‘naviy-ma‘rifiy kamolotiga, jamiyatdagi o‘rni va faolligini yuksaltirishga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgani xususida so‘z yuritdi.

Davomi 6-betda



MUVOZANATNI TA‘MINLOVCHI KUCH

IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGI OMILLARI

Xususiy sektor O‘zbekiston iqtisodiy transformatsiyasining zamonaviy bozor tizimini shakllantirish, barqaror o‘rinishni ta‘minlash va fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan asosiy tarkibiy qismidir. So‘nggi yillarda aynan tadbirkorlar faolligi iqtisodiy taraqqiyot, bandlik va innovatsion rivojlanishning eng muhim omiliga aylandi. Bu esa biznes va xususiy tashabbus iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘layotgan global tendensiyalarga mos keladi.

Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida qulay biznes muhitini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli choralar ko‘rildi. Muhim bosqichlardan biri sifatida Biznes-ombudsman instituti ta‘sis etildi va uning faoliyatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi. Bu, o‘z navbatida, tadbirkorlar manfaatining tizimli himoyasini ta‘minladi.

Shu bilan birga, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish qoidasi soddalashtirildi, rejasiz tekshiruvlar bekor qilindi hamda yer uchastkalarini ajratish tartibi takomillashtirildi. Pirovardida mazkur o‘zgarishlar tufayli ma‘muriy to‘siqlar kamayishiga va tadbirkorlik tizimi faollashuviga erishildi.

Davomi 4-betda



KAPITAL BOZOR VA BANK SOHASIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

► Boshlanishi 1-betda

Taqdimotda “tartibga solish qumdoni” huquqiy rejimini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Ushbu mexanizm doirasida qumdon shartlarini nafaqat norezidentlar, balki rezidentlar uchun ham tatbiq etish, xorijiy investorlar uchun muddatsiz amal qilishini belgilash, shuningdek, chet el kompaniyalarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilishga ruxsat berish taklif qilindi. Bu xorijiy qimmatli qog‘ozlarning norasmiy savdosini qisqartirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Mahalliy investorlarni kapital bozoriga faol jalb etish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Bunda mahalliy kompaniya va banklarga Toshkent fond birjasida xorijiy valyutada obligatsiyalar chiqarishga ruxsat berish orqali tashqi bozorga chiqmasdan turib valyuta mablag‘larini jalb qilish imkoniyatlari yaratilishi qayd etildi.

Shuningdek, emitentlarga o‘z kapitali hajmidan ortiq, ta’minotsiz obligatsiyalar chiqarish imkoniyatini yaratish orqali obligatsiyalar bozorini kengaytirish mumkinligi ta’kidlandi.

Kapital bozorida nazorat va tartibga solish tizimini takomillashtirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Milliy qonunchilikni Qimmatli qog‘ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti talablariga moslashtirish, regulyator vakolatlarini kuchaytirish, shuningdek, professional ishtirokchilarning ustav kapitaliga qo‘yiladigan talablarni bosqichma-bosqich oshirish rejalari taqdimot qilindi.

Bank sohasidagi islohotlar doirasida so‘nggi yetti yilda tijorat banklarining aktivlari 5,3 barobar o‘shib, 877 trillion so‘mdan oshgani, banklarning soni 35 taga yetib, 2017-yildan beri 3 ta xorijiy bank O‘zbekistonda faoliyatini yo‘lga qo‘ygani ta’kidlandi.

Mamlakatimiz ilk bor Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining Moliyaviy sektorni baholash dasturida ishtirok etdi,

unda bank nazorati, risklarni boshqarish, to‘lov tizimlari, makroprudensial siyosat va inqirozlarni boshqarish kabi yo‘nalishlar baholandi.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, kelgusi yilda O‘zbekiston moliya sektorini Bazel qo‘mitasining Samarali bank nazorati bo‘yicha 29 ta asosiy tamoyiliga to‘liq moslashtirish belgilangan. Bu maqsadda barcha tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni to‘liq xalqaro standartlar asosida yuritish, Bazel III standartlarini joriy qilish, Hukumat va Markaziy bank ishtirokida Moliyaviy barqarorlik kengashini tashkil etish vazifalari belgilandi.

Davlatimiz rahbari kapital bozori hamda bank sohasidagi islohotlar iqtisodiyotni barqaror moliyalashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va xalqaro investitsiyalarni faol jalb etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlab, belgilangan vazifalar yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA

SUV XO‘JALIGIDAGI DOLZARB MASALALAR MUHOKAMA QILINDI

► Boshlanishi 1-betda

Bu borada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, Toshkent irrigatsiya universitetida erishilgan natijalar va kelgusidagi rejalar to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Hozirgi kunda universitetda 8682 nafar talaba tahsil olmoqda, 571 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritmoqda, ilmiy salohiyat darajasi 73,5 foizni tashkil etadi.

Universitet xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishib, “THE World University Rankings 2026” reytingida dunyo universitetlari orasida 501-o‘rinni, Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari bo‘yicha 2-o‘rinni, O‘zbekistonda 1-o‘rinni egalladi, “QS World University Rankings 2026” natijalariga ko‘ra esa 469-o‘ringa ko‘tarildi.

O‘tgan yilda universitet hududida 200 o‘rinli zamonaviy AT markazi barpo etildi,

raqamli kutubxona va registrator ofisi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Universitetning ta’lim yo‘nalishlari besh yil muddatga xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi. O‘quv jarayoniga dunyoning TOP-300 taligidagi universitetlarni bitirgan yurtdoshlarimiz va xorijiy professorlar jalb qilingan.

Kelgusida iqlim o‘zgarishini tahlil qilish uchun raqamli texnologiyalarga asoslangan milliy platforma yaratish, universitet hududida kosmik kuzatuv stansiyalari barpo etish, sun‘iy yo‘ldosh ma’lumotlarini qabul qilish infratuzilmasini rivojlantirish rejalashtirildi.

Shuningdek, universitetning “Suv diplomatiyasi” magistratura yo‘nalishiga xalqaro maqom berish ko‘zda tutilgan. Davlatimiz rahbari Toshkent irrigatsiya universitetini dunyoning TOP-300 talik universitetlari qatoriga kiritish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni topshirdi.

Taqdimotda xalqaro hamkorlik masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

O‘ZA

O‘SH SHAHRIDA ALISHER NAVOIY HAYKALI VA UNING NOMI BILAN ATALGAN SHOHKO‘CHA OCHILDI

O‘sh shahrida buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy haykali va uning nomi bilan atalgan shohko‘chaning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu marosimda qatnashish uchun O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov boshchiligidagi Andijon viloyati hokimligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti vakillari hamda mamlakatimiz elchisi Saidkrom Niyozxo‘jayevning O‘sh shahriga tashrifi amalga oshirildi.

“

O‘zbekistonlik mehmonlarni qirg‘iz — o‘zbek davlat chegarasidagi “Dostuk” chegara-o‘tish punktida Qirg‘iziston madaniyat, axborot va yoshlar siyosati vaziri o‘rinbosari Askarali Madaminov, Prezidentning O‘sh viloyatidagi vakolatli vakilining 1-o‘rinbosari Ilyaz Toshboyev, O‘sh shahri meri Jenishbek Toktorboyev va boshqa rasmiy shaxslar tantanali ravishda kutib oldi.

Alisher Navoiy shohko‘chasi va haykalning ochilish marosimida Qirg‘iziston Prezidentining O‘sh viloyatidagi vakolatli vakili Amankan Kenjeboyev boshchiligidagi davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, O‘zbekiston delegatsiyasi hamda turli OAV xodimlari ishtirok etdi.

Tadbir Alisher Navoiy haykalini ochish va uning poyiga gulchambarlar qo‘yish marosimi bilan boshlandi. Shundan so‘ng ishtirokchilar e’tiboriga o‘zbek va qirg‘iz san’atkorlari tomonidan tayyorlangan, Alisher Navoiy ijodini aks ettiruvchi sahna ko‘rinishlari va uning g‘azallariga bastalangan qo‘shiqlardan iborat konsert dasturi taqdim etildi.

O‘sh viloyati rahbari o‘z nutqida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari va strategik hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida ta’kidladi. Alisher Navoiy haykali ochilishi marosimida ishtirok etish uchun O‘sh shahriga O‘zbekistondan nufuzli delegatsiya tashrifi ikki mamlakat xalqlarining tarixiy va madaniy birodarlik aloqalari va chuqur hurmat belgisi ekanini urg‘uladi.

Alisher Navoiyning ma’naviy merosi o‘zbek va qirg‘iz xalqlarini birlashtiruvchi muhim qadriyat hisoblanadi. O‘sh shahrida



uning haykali o‘rnatilishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi madaniy hamkorlikning yorqin timsolidir.

Shahar meri O‘sh shahrida Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog‘i 1968-yilda barpo etilgani va buyuk o‘zbek shoirining shahardagi birinchi haykali ham shu yil o‘rnatilganini hamda 1991-yilda bog‘ atrofidagi ko‘chaga uning nomi berilganini ma’lum qildi. Ushbu ko‘cha shu kungacha uning nomi bilan atab kelingan. So‘nggi yillarda bu yerda katta ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarilib, ko‘cha mavqei ko‘tarilib, shohko‘chaga o‘zgartirilgani bildirildi.

Jenishbek Toktorboyevning ta’kidlashicha, xalqlarimiz doim birdamlikda yashab kelgan va bu ahil-inqlik hozirgacha saqlanib qolmoqda. Joriy yilda O‘sh viloyatiga O‘zbekistondan 1,3 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan va ushbu raqam xalqlarimiz o‘rtasida birodarlik va do‘stlik aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Tadbir Tashqi ishlar vazirligining janubiy viloyatlardagi vakolatxonasida davom ettirilib, o‘zbek — qirg‘iz delegatsiyalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik munosabatlari muhokama qilindi. Muloqot chog‘ida so‘nggi yillarda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning jadal rivoji hamda erishilgan muhim yutuqlar haqida to‘xtalib o‘tiladi. Tomonlar o‘zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, birgalikda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va tajriba almashish haqida kelishib oldi.

Uchrashuvda O‘zbekiston Prezidentining o‘zbek va qirg‘iz xalqlari orasidagi azaliy do‘stlik va totuvlikni mustahkamlash ishlarga qo‘shgan salmoqli hissasi uchun O‘sh shahri meri Jenishbek Toktorboyevni “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlash to‘g‘risidagi farmoni o‘qib eshittirildi. Ushbu mukofotni O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tantanali ravishda topshirdi.

“

Mer Jenishbek Toktorboyev kamtarona faoliyatiga berilgan yuksak baho uchun O‘zbekiston Prezidenti va o‘zbek xalqiga chuqur hurmatini izhor etib, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi tarixiy birodarlik aloqalarini hamda o‘zaro hamkorlik munosabatlari yanada mustahkamlash va rivojlantirish yo‘lida bor kuchini sarflashini ta’kidladi.

O‘z navbatida, Ozodbek Nazarbekov Alisher Navoiy shohko‘chasini ta’mirlash va haykalni o‘rnatish loyihasini amalga oshirish hamda bugungi tadbirni tashkil etishda jonbozlik ko‘rsatgan tashkilotchilarga O‘zbekiston nomidan samimiy minnatdorlik bildirdi.

Tadbir davomida elchi Saidkrom Niyozxo‘jayev “Destinatsiya O‘sh” turizm korxonalari jamoat birlashmasi raisi Abduqodir Aliyevga “O‘zbekiston turizm brendining Qirg‘izistondagi elchisi” sertifikatini tantanali ravishda topshirdi.

Dunyo” AA
O‘sh shahri



Inson qadri uchun

Mamlakatimizda iqtisodiy imkoniyatlar kengayib, aholi turmush sharoiti yaxshilanayotgani bois, uy-joyga talab yildan yilga ko‘paymoqda. Bu, o‘z navbatida, uy-joy islohotlari samaradorligini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda aholining o‘rtacha o‘shish tendensiyasi yillik ikki foizni tashkil etmoqda. Shunga mos ravishda qurilish bozori jadal rivojlanayapti. Biroq bu jarayonda uy-joylar narxini maqbullashtirish, aholi manfaatlarini himoya qilish dolzarb masalaga aylanayпти.

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni uy-joy sohasining barqaror o‘shishini ta’minlash, uy-joy qurilishi va uni sotib olishning muvozanatlashgan tizimini shakllantirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim hujjat sanaladi.

— Mazkur hujjat bilan yurtimizda uy-joy, urbanizatsiya sohasida yangi davr boshlanishi arafasida turibmiz, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarmaga boshlig‘i Rasul Hamidov. — Unda sohada uzoq muddatga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Bu, o‘z navbatida, uy-joy sohasining barqaror rivojini ta’minlash, mavjud talab va ehtiyojlarni inobatga olgan holda uy-joy qurilishi hajmini belgilash, barqaror iqtisodiy o‘shish, aholi soni ortib borishi va urbanizatsiya jarayonlaridan kelib chiqib, har bir fuqaro uchun qulay yashash sharoitlarini

yaratishga xizmat qiladi. Endilikda uy-joy siyosati, asosan, renovatsiya va urbanizatsiya tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Farmon bilan 2040-yilga qadar har yili qurilayotgan uy-joylar sonini ikki baravar oshirib, 421 mingtaga, ipoteka krediti portfelini esa 10 baravardan ortiq ko‘paytirgan holda 56,7 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Urbanizatsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlash, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etish ishlarni izchil davom ettirgan holda uy-joy fondida zamonaviy uy-joylar ulushi 2040-yilga qadar 50 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, uy-joy bozoriga bank moliyasi va institutsional investorlar mablag‘larini, shu jumladan, ipoteka kreditidan foydalangan holda jalb etish, ulushli qurilishga sarmoya kiritayotgan jismoniy shaxslar huquqlarini himoya qilish, uy-joy qurilishi sohasini “Uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyili asosida kompleks isloh qilish va uni amalga oshirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish sohani barqaror va

muvozanatli rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.

— Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan ipoteka kreditlarini olishga imkoniyat yaratadigan aholi qamrovi taxminan 12 foizni tashkil etadi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi loyiha ofisi direktori o‘rinbosari Muhammadbobur Tohirov. — Ayni paytda tijorat banklariga ipoteka kreditlari uchun qo‘shimcha resurs mablag‘larini jalb qilib mazkur ko‘rsatkichni 30 foizdan oshirishni maqsad qilganmiz. 2017-yildan joriy yilning o‘tgan davrigacha bo‘lgan vaqt davomida 534 ming fuqaroga qariyb 101 trillion so‘m ipoteka krediti ajratilgan. 2025-yilning 1-noyabr holatiga ko‘ra, ajratilgan ipoteka kreditlari qoldig‘i 77 trillion so‘mga yetib, 2017-yil boshidagiga nisbatan qariyb 10 barobar oshgan.

Hujjat talablari asosida, birinchi navbatda, qurib bitkazilmagan uy-joylar hamda sanoat hududlarini foydalanishga topshirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, ekologik toza mahsulotlar hamda energiya tejavchi texnologiyalardan foydalangan holda uy-joy massivlarining muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmasini oldindan barpo etishni nazarda tutadigan kompleks qurilish tamoyili asosida uy-joylar qurilishini tashkil etish tartibi joriy qilinadi.

Hujjatda kompleks qurilish tamoyiliga urg‘u berilib, uning huquqiy doiralari belgilangan. Unga ko‘ra, kompleks qurilish dasturlari faqat ochiq va batafsil ishlab chiqilgan rejalr asosida tayyorlanadi. Kompleks qurilish uchun ajratilgan yer uchastkalarini xususiy lashtirish dasturlariga kiritish yoki boshqa loyihalarga jalb etish hamda ularning maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.



Kompleks qurilish loyihalariga kiritiladigan

yer uchastkalari, ko‘chmas mulk obyektlari va ularning huquq egalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar taqdim etiladi. Loyihalarni amalga oshirishda hududlarning kelgusidagi ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga oluvchi kompleks yondashuvdan foydalaniladi.

Farmonga muvofiq, urbanizatsiya, uy-joy va ipoteka bozorini barqaror rivojlantirishning asosiy vazifalari ham belgilab berildi. Ular aholi uchun uy-joyga ega bo‘lish imkoniyatini



Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz yosh sportchilarimizga tabrik yo‘lladi. Davlatimiz rahbari tabrigidagi: “Turmir davomida O‘zbekiston madhiyasi qariyb 100 marta yangragani sizlarning Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga qanday beqiyos hissa qo‘shganingizdan dalolatdir.

Sizlar ulkan azm-u shijoatingiz, bukulmas iroda va intilishingiz bilan Osiyoning milliy sporti jadal rivojlanayotgan Eron, Yaponiya, Tailand, Indoneziya kabi davlatlari jamoalarini ham ortda qoldirishga muvaffaq bo‘ldingiz”, degan so‘zlar sportchilar qatori har bir yurtdoshimiz qalbidan chuqur joy olgani ham ayni haqiqat. Bunday sharaflı yutuqlar bizni zafarli yurishlar zamiridagi hayotiy haqiqatlarni anglashga chorlaydi.

Biz haqli ravishda ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz. Ularning salohiyati, erishgan yutuqlarini havas bilan tilga olamiz. Ayni dam ular bunga qanday erishgani haqida mulohaza qilamiz, hayratlanamiz.

Keyingi yillarda ana shu hayrat, hayajon bir oz bosilgan, ajdodlar yutug‘ini bir qadar tabiiy qabul qilishga o‘rganyapmiz. Chuqur tahlil qilinsa, bu jarayon ham tabiiy va asosli. Negaki, keyingi yillarda yoshlarimiz erishayotgan katta-katta yutuqlar o‘tmish ajdodlarga munosib tarzda kechmoqda. Bu xuddi toqqa yaqin borishga o‘xshaydi. Tog‘lar olisdan juda baland va yetib bo‘lmas cho‘qqi bo‘lib ko‘rinadi. Ammo unga yaqin borganing sari uning cho‘qqisiga olib chiqadigan so‘qmoqlar ko‘rina boshlaydi.

Shu o‘rinda bir mulohaza. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy “Har bir insonning qadr-qimmatı o‘z ishini qiyil qilib bajarishida”, degan edi. Shunday davrlar bo‘ldiki, xalqimiz fidoyiligi, jasorati, vatanparvarligi jinoyat deb topildi. Bunga jaddid ajdodlarimiz taqdiri yaqqol misol bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda inson o‘zini to‘la ko‘rsata olishi, ishini qoyil qilib bajarishi uchun unga imkon beradigan islohotlar amalga oshirildi. Bu o‘zgarishlar sabab biz ham o‘tmish degan ulkan tog‘ etagiga ancha yaqinlashdik. Avvalo, ajdodlar makon tutgan cho‘qqidan ko‘ra balandroq manzillarni ko‘zlab yo‘lga chiqdik.

Olis safarga esa doim puxta hozirlik ko‘riladi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ilk davrida biz ana shu hozirlik jarayonini boshdan kechirdik. Avvalo, odamlarning dardiga quloq tutiladigan tizim yaratildi. So‘ng manzilli ko‘mak berish amaliyoti haqiqiy ma‘noda keng quloq yozdi. Nihoyat Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Shu bilan birga, adaptiv sport turlari jamiyatimizda keng targ‘ib etilib, bu bo‘yicha ham zarur sharoitlar yaratildi.

Shu tariqa biz ko‘zlangan cho‘qqi sari muayyan masofani bosib o‘tdik. Paraosiyo o‘yinlari davomida O‘zbekiston madhiyasi qariyb 100 marta yangragani fikrimiz dalilidir. Ha, Paraosiyo o‘yinlarida sportchilarimiz yutuqlari orqali dunyo hamjamiyatiga mamlakatimizda insonning jismoniy va ma‘naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qanchalik e‘tibor qaratilayotganini ko‘rsatib berdi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Muxtorxon TOSHXO‘JAYEV,
O‘zbekiston Milliy paralimpiya
qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz mazkur g‘alaba munosabati bilan yo‘llagan tabrigida “O‘zbekiston Paraosiyo o‘yinlari tarixida bunday rekord natija, bunday buyuk zafar ilgari hech qachon bo‘lmagan edi. Hech shubhasiz, sizlar yurtimiz sportida shonli tarix va an‘analari yaratayotgan yoshlar, mohir mutaxassislar sifatida yuksak tahsin va tasannolarga munosibsiz.

Butun xalqimiz, jonajon Vatanimiz sizlar bilan faxrlanadi. Sizlar O‘zbekiston paralimpiya harakatining

Jamoamiz 99 ta oltin, 57 ta kumush va 41 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, tarixiy natijaga erishdi.



oltin avlodi, oltin vakillarisiz”, deya muzaffar yosh sportchilarimizni e‘tirof etdi.

Bunday oltin avlodni shakllantirish oson emas. U o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Buning ortida tunu kun el dardi, vatan taraqqiyoti yo‘lida qilingan katta xizmat turibdi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar timsolida buni ko‘rib turibmiz.

Ha, Prezidentimiz tashabbusi bilan sportga, xususan, para sportga e‘tibor tubdan oshdi. Keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu boradagi yangilanishlar Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzilishi bilan yangi bosqichga chiqdi. Alohida Adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizimda Matonat maktabi hamda sohada mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha institut tashkil qilindi. Muhimi, islohotlar tufayli mahallalarimizda adaptiv sport turlari bilan muntazam shug‘ullanuvchilar soni 45 mingdan oshdi. Jamiyatimizda adaptiv sport muhiti yaratildi. Endi buni yanada rivojlantirish uchun islohotlarning yangi bosqichiga start berildi.

Prezidentimiz joriy yil 11-dekabrda “Paralimpiya sport turlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni qabul qilish orqali para sportchi yoshlarga yana bir karra katta ishonch bildirdi. Bunday imkoniyat va e‘tibor yoshlarga qanot bag‘ishlaydi. Dubay shahrida o‘tgan Paraosiyo o‘yinlarida bunga guvoh bo‘ldik. Davlatimiz rahbarining ishonchidan ruhlangan sportchilarimiz 35 davlatdan kelgan tengdoshlari orasida g‘alabaga intilishi bilan ajralib turdi. Ular nafaqat yutuqlari, balki o‘ziga ishonchi, ko‘tarinki kayfiyatda bahslarga kirishishi bilan ham ko‘zga yaqqol tashlandi.

Ana shu ko‘tarinkilik, ishonch musobaqalarda o‘z so‘zini aytdi. Paraosiyo o‘yinlari biz uchun rekord

“Mag‘lubiyatga yo‘l yo‘q!”
degan shior kuch berib turdi



Akmalxon XAYRULLAXONOV,
V Yoshlar Paraosiyo o‘yinlari
g‘olibi:

— Sport bilan shug‘ullanib aslo xato qilmaganimni har gal g‘oliblik shohsupasida turganimda, eng asosiysi, Prezidentimiz biz, sportchi yoshlarga ishonch bildirganida chuqur anglab yetaman. Kuni kecha “Olimpiya shaharchasi”da turib, Prezidentimiz tabrigini eshitir ekanman, ich-ichimdan to‘lqinlanib ketdim. Ayniqsa, “Butun xalqimiz, jonajon Vatanimiz sizlar bilan faxrlanadi. Sizlar O‘zbekiston paralimpiya harakatining oltin avlodi, oltin vakillarisiz. Bunday qahramon yoshlarimizga shon-sharaflar bo‘lsin!” degan so‘zlardan g‘ururlandim.

Para armrestling bilan 1 yildan ziyodroq vaqt mobaynida shug‘ullanib kelayotgan bo‘lsam, bu gal tayyorgarlik mashg‘ulotlarimizning o‘zi ham har doimgidan jiddiy o‘tkazilganiga guvoh bo‘ldim. Aslida, yildan yilga natijalar yuqorilab borayotgani ortida tayyorgarlikka berilayotgan alohida e‘tibor, sportchilarga g‘amxo‘rlik turadi. Qancha qulaylik bo‘lgani sari g‘oliblikka yaqinlashib boraverasiz. Shuning uchun oldimizda faqat va faqat g‘alaba, mag‘lubiyatga yo‘l yo‘q degan shior turdi. Qolaversa, murabbiylarimiz, ota-onalarimiz, xalqimiz, Prezidentimiz ishonchini oqlashdek sharaflar bizga kuch berdi.

Prezidentimiz tabrigidagi quyidagi so‘zlarni endilikda yanada yuksak marralarni zabt etishga chorlaydi: “Sizlar erishgan ulkan zafar Yangi O‘zbekiston yoshlari qanday katta marralarni egallashga qodir ekanini amalda yana bir bor ko‘rsatgani bilan ham g‘oyat ahamiyatlidir. Bu g‘alaba, hech shubhasiz, minglab yoshlarimizga g‘urur va iftixor, intilish va ilhom manbai, katta tajriba maktabi bo‘lib xizmat qiladi”.

Albatta, biz ham katta, tajribali sportchilar singari kelajakda o‘z maktabimizni yaratib, ortimizdan kelayotgan yosh avlodga bor mahoratimizni o‘rgatsak, yurtimiz sportida o‘z o‘mimiz, nomimiz bo‘lsa deymiz. O‘ylaymanki, yangi O‘zbekistonda bunday ezuq niyatlarning barchasi ijobat bo‘ladi.

Har qanday qo‘rquv, hayajonni unutib, o‘z oldimga
“SEN FAQAT OLTIN MEDAL UCHUN KELGANSAN,
BOSHQASIGA O‘RIN YO‘Q. O‘zbekistonga faqat va faqat oltin
medal bilan qaytishing kerak”, degan maqsadni qo‘ydim.

Faqat g‘olib bo‘lib qaytishni
maqsad qilgandim



Husniya OLIMJONOVA,
V Yoshlar Paraosiyo o‘yinlari
g‘olibi:

— Bugun biz, sportchi qizlarga hamma havas qiladigan ajoyib davrda yashayapmiz. Mamlakatimizda sportga qiziqqan yoshlarga har qachongidan ko‘p va jiddiy e‘tibor berilyapti. Eng muhimi, ota-onalarning sport haqidagi fikrlari ham avvalgidan bundunlay o‘zgargan. Shuning uchun bugungi kunda qizlarni sportning eng og‘ir turlari, hatto tosh ko‘tarish musobaqalarida ham uchratish mumkin. Nogironligi bo‘lsa-da, qizlariga ishonch bildirib, ularni katta sportga yo‘naltirgan ota-onalar bugun farzandining ortidan rahmat eshiptyapti, munosib taqdirlanyapti. Ular bunga munosib. Murabbiylar esa bundan ham ortig‘iga loyiq.

Chunki para sportchilar bilan ishlash ustozdan juda katta matonat, sabr-toqat talab qiladi. Sportchiga ham ota, ham ona, ham do‘st bo‘ladigan murabbiylar bor. Zero, shunday bo‘lgan taqdirdagina katta-katta g‘alabalarga yo‘l ochildi, ustoz-shogird birgalikda dunyo keza oladi.

Endigina 16 yoshda bo‘lishimga qaramay, sport tufayli dunyoning eng mashhur shaharlari, davlatlarini ko‘rib kelaypman. Dubaydagi musobaqalarda para yengil atletikaning 8 turida qatnashdim. Jarayonlarda har qanday qo‘rquv, hayajonni unutib, o‘z oldimga “Sen faqat oltin medal uchun kelgansan, boshqasiga o‘rin yo‘q. O‘zbekistonga faqat va faqat oltin medal bilan qaytishing kerak”, degan maqsadni qo‘ydim. Qarangi, birinchi marta qatnashishim bo‘lsa-da, birato‘la 8 ta oltin medalni qo‘lga kiritdim. Bunday natijaga erishganimdan nafaqat yaqinlarim, ko‘plab yurtdoshlarimiz quvonayotganini ko‘rib, oldinda turgan musobaqalarga katta kuch olaypman.

“Senga juda ko‘pchilik havas qilyapti, qoyil”, degan so‘zlardan qanchalik ruhlanganimni so‘z bilan ifodalay olmayman. **Hozircha yugurish, yadro uloqtirish, balandlikka, uzunlikka sakrash bo‘yicha olgan bu medallarim bilan Vatanim, xalqimning menga ishonchini oqlagan bo‘lsam, bu boshlanishi. Nasib qilsa, 2026-yili Los-Anjelesda bo‘lib o‘tadigan yirik musobaqalarda ham Vatanimga faqat oltin bilan qaytaman.**

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Munojat MO‘MINOVA
yozib oldi.



Ramziddin NURIDDINOV,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi bosh mutaxassisi

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz iqtisodiyot modernizatsiyasini davom ettirar ekan, O‘zbekiston 2019-2021-yillarda biznes muhitini raqamli o‘zgartirishga e’tibor qaratdi. “Yagona darcha” tizimi va “E-kadastr.uz” elektron portali yaratilishi tufayli sohada shaffoflik ta’minlandi hamda biznes uchun ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo‘yilib, xarajat kamaydi. Litsenziya va ruxsatnomalar olish tartibining soddalashtirilishi kichik biznes subyektlari va tadbirkorlar sonining ko‘payishiga yordam berdi.

2022-2024-yillarda xususiy sektorning yanada rivojlanishi raqobatning kuchayishi va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengayishi bilan tavsiflandi. Raqobat mavjud bo‘lgan sohalarda davlat korxonalarini tashkil etishga cheklov o‘rnatildi. Oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari joriy etildi va kreditlash bo‘yicha elektron platformalar ishga tushirildi. “Raqobat to‘g‘risida”gi

qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi hamda Prezidentimizning har yili an’anaviy tarzda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazishi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, tadbirkorlik tashabbusining barqaror rivojlanishi va xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun poydevor yaratdi.

Ushbu islohotlar natijasida 2024-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi 54,3 foiz, eksportda — 33,3 foiz, sanoatda esa 32,4 foizga yetdi. Bunday dinamika aynan xususiy sektor iqtisodiy o‘shish va milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi uchun asosiy lokomotivga aylanganini ko‘rsatadi.



Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatda 77 mingta yangi korxona tashkil etilgan. Ularning umumiy soni esa 358,1 mingtaga yetgan. Yangi xususiy biznes subyektlarining eng katta qismi savdo sohasida (28 mingta korxona) ro‘yxatga olingan. Keyingi o‘rinlardan sanoat (12,8 mingta),

qishloq xo‘jaligi (9,1 mingta) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasi (6,5 mingta) joy olgan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida iqtisodiyotdagi nodavlat sektor ulushini 85 foizgacha oshirish va davlat ulushi ishtirokidagi korxonalar sonini hozirgi 2300

tadan 383 tagacha qisqartirish ko‘zda tutilgan. Xususiylashtirish, raqobatni kuchaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bu yo‘nalish iqtisodiyot samaradorligini oshirish va davlatning tijorat faoliyatidagi ishtirokini pasaytirishga qaratilgan.

Ushbu chora-tadbirlarni takomillashtirishda davlatning qator funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib 2025-yil 1-iyuldan boshlab biznesga 11 turdagi davlat xizmati topshirilgan. Tibbiyot tashkilotlarini akkreditatsiya qilish, hisoblagichlarni tekshirish va transportni eksosertifikatsiyalash shular jumlasidan. Bundan tashqari, 2028-yilgacha xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar uchun 1 foiz miqdoridagi ijtimoiy soliqning imtiyozli stavkasi uzaytirilgan. Bu ularning rivojlanishini rag‘batlantiradi va aholining bandligini oshirishga yordam beradi.

Ishbilarmonlik faolligini yanada rivojlantirish maqsadida 2026-yil 1-yanvardan boshlab yillik

aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar uchun 1 foiz miqdorida pasaytirilgan soliq stavkasi joriy etiladi. Ushbu chora soliq yukini kamaytirish va yangi ish boshlayotgan tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, kichik biznes sohasini mustahkamlash va o‘zini o‘zi band qilishni kengaytirish uchun muhim.

Soliq imtiyozlarini joriy etish bilan bir qatorda ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlarni rivojlantirishga xususiy kapitalni jalb etish kuchaydi. Xususan, ta’lim sohasida xususiy bog‘chalar soni 120 barobardan ziyodroq ko‘payib, 31 mingtaga, xususiy maktablar soni esa 22 barobar oshib, 645 taga yetdi. Maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 70-80 foizdan past bo‘lgan 80 ta tumanda tadbirkorlarga imtiyozlar berilmoqda. 30 yilgacha ijara to‘lovidan ozod qilish va har bir tarbiyalanuvchi uchun xarajatning 50 foizini subsidiyalash shular jumlasidan. Bunday rag‘batlantirishlar sifatli ta’lim-tarbiya olish imkoniyatini kengaytirish va xususiy investorlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi faol ishtirokiga yordam beradi.

Shunga o‘xshash tendensiyalar sog‘liqni saqlash sohasida ham kuzatilmoqda. So‘nggi yetti yilda xususiy tibbiyot muassasalari soni 3500 dan 8500 taga ko‘paydi. Bu o‘shish biznes uchun qulay sharoit, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bilan bog‘liq. Bundan tashqari, aholining xususiy tibbiy xizmatga ishonchi ortib bormoqda. Bu esa xizmat sifatini yaxshilash va fuqarolarning zamonaviy davolash usullaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Ayrim tarmoqlardagi tarkibiy islohotlar natijasi makroiqtisodiy darajada ham namoyon bo‘lmoqda. Bu investitsiyalarning o‘sishi va xususiy sektor faolligi bilan tasdiqlanmoqda. Xususan, 2024-yilda O‘zbekistonda 493,7 trillion so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Shundan 150,5 trillion so‘mi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. So‘nggi besh yilda kapital qo‘yilmalarning umumiy hajmi qariyb 2,3 barobar o‘tdi. Investitsiyalarning 75,9 foizi jalb qilingan mablag‘, 24,1 foizi esa korxonalar, tashkilotlar va aholining o‘z mablag‘i hisobidan moliyalashtirildi.

Xalqaro baholashlar ham O‘zbekistondagi o‘zgarishlar samaradorligini tasdiqlamoqda. Xususan, Jahon bankining “Biznesga tayyorlik 2024” hisobotiga ko‘ra, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xususiy sektor ish o‘rinlarining qariyb 90 foizini yaratadi. Investitsiyalarning 75 foizini va sanoat ishlab chiqarish hajmining 70 foizdan ortig‘ini ta’minlaydi. Tadbirkorlik faoliyatini samarali va shaffof tartibga solishga iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish va samaradorlikni oshirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo davlatlar COVID-19 pandemiyasidan keyin barqaror tiklanish uchun davlat va biznes o‘rtasida yaqin hamkorlik zarurligi haqidagi pozitsiyani ma’qullaydi. Tashkilotning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilga borib Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun talab qilinadigan yillik investitsiyalar 2019-yildagi 2,5 trillion AQSH dollaridan 2020-yilda 3,7 trillion dollargacha oshdi. Bu esa investitsiyalarni jalb qilish va uzoq muddatli rivojlanishning strategik vazifalarini amalga oshirishning asosiy mexanizmi sifatida davlat-xususiy sheriklikning ahamiyatini oshiradi.

Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) rivojlanishidagi sezilarli yutuqlarni Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. 2021-yilda DXSH loyihalarining umumiy portfelii taxminan 6,2 milliard dollarni tashkil etgan va bu YIMning taxminan 8 foiziga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2024-yil oxiriga kelib, bu ko‘rsatkich 31 milliard dollarga yoki YIMning 27 foiziga yetdi. Bunday tendensiya xususiy kapitalning iqtisodiyotdagi mavqei kuchayayotgani va investorlarning ichki bozorga qiziqishi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston tajribasi tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaratish, xususiy kapitalni faol jalb qilish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun ishonchli poydevor yaratishini ko‘rsatadi. Uzoq muddatli istiqbolida aynan xususiy sektor milliy raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy o‘shish hamda aholi farovonligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning asosiy omiliga aylanadi.

Moliya muassasalarida

MUROJAATLAR

BILAN ISHLASH

“AGROBANK” faoliyatining

muhim yo‘nalishlaridan biri

So‘nggi yillarda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqishda qonun ustuvorligini ta’minlashning samarali, mustahkam huquqiy mexanizmi shakllandi. Ushbu yo‘nalishdagi siyosatga hamohang ravishda “Agrobank” ATBda ham aholi hamda mijozlarning moliya muassasasiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlash, murojaatlarida aks etgan asosli masalalarni ijobiy hal etishga strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaratilmoqda. Bank boshqaruvi yo‘lilishlarida bu boradagi ishlar doimiy e’tibordagi masala sifatida muntazam muhokama etilyapti.



Murojaatlarining aksariyati bevosita moliya muassasasi faoliyati, mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlari bilan bog‘liq. Ya’ni joriy yilda kelib tushgan murojaatlarining 38 foizi kredit yuzasidan, qolganini ko‘rsatlayotgan boshqa xizmatlarga tegishli bo‘ldi.

Murojaatlar o‘tgan yildagiga nisbatan kamaydi. Ya’ni o‘tgan yilning birinchi dekabrighacha 9870 ta murojaat qilingan bo‘lsa, joriy yilning shu vaqtiga kelib, mazkur raqam 9462 tani tashkil etdi. 69 foiz murojaatga ijobiy yechim topilib, qanoatlanirildi, qolganlariga esa me’yoriy hujjatlar asosida tushuntirish berildi. Buning o‘ziga xos asoslari bor, albatta. Masalan, 1216 qisqa raqamli mijozlar bilan aloqa markazi tashkil etilgani va uning kechki soat 24:00 gacha faoliyat yuritayotgani samaradorlikni ta’minlamoqda. Aloqa markazi orqali mijozlarni qiziqitirgan barcha savollarga javob berilmoqda, yangi bank xizmatlari va ular bo‘yicha muhim ma’lumotlar taqdim etilmoqda. Aynan markaz orqali yil boshidan buyon jami 972 ming 328 ta qo‘ng‘iroq, shuningdek, onlayn chat va telegram bot orqali 110 ming 230 ta murojaat qabul qilinib, so‘rovlarga batafsil javob berildi.

Shuningdek, joriy yilda aholi va bank mijozlari bilan yuzma-yuz muloqot qilish maqsadida hududlarda tadbirkorlar bilan 281 ta sayyor uchrashuv o‘tkazildi. Ularda ishtirok etgan 3617 fuqarodan 3080 ta murojaat bo‘ldi. Ularning 1467 tasi joyida ijobiy hal qilindi, 1613 ta murojaat bo‘yicha amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida tushuntirishlar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

Ta’kidlash kerakki, murojaatlarni o‘z vaqtida va batafsil ko‘rib chiqilishida kamchiliklarga yo‘l qo‘ygani uchun bankning 92 xodimiga nisbatan intizomiy chora ko‘rildi.

Murojaatlar tahlili natijasida bank mijozlariga xizmat ko‘rsatish sifati oshirildi. Ular uchun qulay bo‘lgan yangi bank xizmat turlari joriy etildi. Bundan tashqari, kredit ajratish jarayoni soddalashtirilib, ortiqcha bo‘g‘inlar qisqartirildi.

An’anaviy xizmatlarda inson omilini kamaytirish orqali qulaylikni oshirish bilan birga xizmat bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shikoyatlarining ham oldini olish maqsadida bank mobil ilovasi takomillashtirildi. Avtomatik karta emissiyasini amalga oshiruvchi kartomat quрилmalari, naqd pul topshiruvchi YTT va yuridik shaxslarga avtomatlashtirilgan depozit mashina (ADM) — onlayn inkassatsiya qiluvchi quрилmalarni amaliyotga joriy etildi.

Shu bilan birga, barcha filiallarda “Smart-office” shoxobchalari qurilib, bosqichma-bosqich ishga tushirilmoqda. Mazkur shoxobchalar ham inson omilisiz 24/7 rejimida faoliyat yuritadi hamda barcha turdagi bank operatsiyalarini avtomatlashtirilgan holda bajaradi.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, bankning bosh ofisida jismoniy va yuridik shaxslarni kutib olish, shaxsiy qabullarni tashkil etish hamda murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus hududlar, xonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda jismoniy va yuridik shaxslar, imkoniyati cheklanganlar, umuman, barcha uchun zarur qulaylik yaratilgan. Bular bank tomonidan murojaatlar bo‘yicha bajarilayotgan ishlar natijadorligining ayrim jihatlari. Muhimi, “Agrobank” ATBda bu yo‘nalish doimiy e’tibor va nazoratga olingan. Tahlil va natija bank jamoasi faoliyatida o‘z aksini topmoqda.

Azizjon AHMADALIYEV,
“Agrobank” ATB bank apparati
direktori o‘rinbosari

Obod manzillar

TASHLANDIQ YERLAR

daromad keltiradigan

BOG‘LARGA AYLANDI

Qo‘shtepa tumani hududidan oqib o‘tuvchi Katta Farg‘ona kanali muhofaza zonasida, “Do‘rmon” mahalla fuqarolar yig‘inidan Shomirza mahallasigacha bo‘lgan oraliqda uzum yetishtirish, kanal hududidan o‘tuvchi bo‘ylama zovur sohilida esa o‘rdak boqish loyihasi amalga oshirilganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Loyiha ishsiz fuqarolarni ish bilan ta’minlash, el dasturxoniga sarxil sabzavot, uzum, parhezbo‘p o‘rdak go’shti yetkazishda samara bermoqda.

Yangi loyiha tufayli kanalning bo‘sh turgan 12,6 gektar muhofaza hududi tozalandi va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan 126 ta lotga bo‘lindi. Atrofi panjarali to‘siqlar bilan o‘raldi. Uning qarama-qarshi tomonida, katta magistral bo‘yidagi zovur qirg‘og‘ida o‘rdak boqish uchun kerakli sharoit hozirlandi. Bu yer o‘rdak boqish niyatidagi 26 kishiga bo‘lib berildi.

Uzum hosilga kirguncha so‘ritok ostini bo‘sh qoldirmaslik uchun bu yil mochalga ekdim, — deydi “Do‘rmon” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Odinaxon Akbarova. — Hosil yaxshi bo‘ldi. To‘qsonbosti usulda sarimsoqpiyoz ekdik. Kanal bo‘yi bo‘lgani uchun suvdan muammo yo‘q. Bu yerlarda yolg‘iz yurishga cho‘chirdik. Baland-past qum barxani, o‘t-o‘lanlar, chiqindilar uyumi dilni xira qilardi. Endi hammasi o‘zgardi. Bizga ekinlarni zamonaviy va integratsiyalashgan uslubda parvarish qilish, zararli organizmlardan himoyalash, kooperatsiya tizimini rivojlantirish, hudud iqlim sharoitiga mos urug‘ va ko‘chatlarni tanlash, serdaromad ekin turlarini ekish bo‘yicha mutaxassislar amaliy tavsiyalar berishmoqda.



Dala yumushlari bilan andamon bo‘lib yurgan Abduhakim Yusupov “Shomirza” mahalla fuqarolar yig‘inida yashaydi. Bir necha yildan buyon xorijda ishlardi. Unga mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan imtiyoz asosida uzum maydoni ajratib berildi. Abduhakim dehqon farzandi bo‘lgani uchun yerga mehr berib mehnat qildi, itildidi, izlandi.

Shu kungacha sholg‘om, turplarni yig‘ishtirib oldik, — deydi egatar oralab yurgan Abduhakim. — Endi plyonka ostida kashnich, ismalog, to‘qsonbosti usulda rediska ekdik. Yaqin yillarda bularning yoniga uzum hosili ham qo‘shilsa, daromadimiz salmog‘i yanada ortadi. Muhimi, oilam, yaqinlarim oldidam. Xorijga borib ishlashga ham zarurat qolmaydi. Yerga mehr bergan odam kam bo‘lmaydi deb, shuni aytisalar kerak-da.

Mahallada parrandachilik yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan fuqarolar ham mehnati samara berayotganidan mamnun. Yaqingacha qarovsiz tepaliklar bo‘lgan, o‘z holiga tashlab qo‘yilgan bu yerda o‘t-o‘landan boshqa narsa ko‘karmagan. Endi ekin maydonlariga aylanib dehqonchilik madaniyati kirib keldi.

— O‘rdak tez ko‘payadigan parranda, — deydi do‘rmonlik Sherali Akbarov. — Masalan, bir bosh o‘rdak yil davomida o‘rtacha 110-120 dona tuxum beradi. Xo‘rozining tirik vazni uch oyda 3-3,5 kilo, makiyoni 2-2,5 kilogrammacha et oladi. Bir kilo o‘rdak go’shti o‘rta hisobda 40-45 ming so‘mliq hisobga olinsa, daromad salmog‘ini chamalash qiyin emas. Mahallamiz hududida o‘rdakchilikni yo‘lga qo‘yish, ko‘paytirish orqali parhez go’shti yetishtirish uchun barcha sharoit yaratilgan.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabi ortib bormoqda. Shunday vaziyatda ekin maydonlaridan samarali foydalanish, mahsulot yetishtirish hajmi va sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bu ishlar samarali yo‘lga qo‘yishda Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori muhim dasturlamal bo‘lmoqda, — deydi Farg‘ona viloyati o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi boshlig‘i Abdulkalim Saidov. — Dala cheti va kanal atrofidagi har bir qariq yer daromad manbai. Joriy yil bahor mavsumida 2483 gektar dala chetiga mevali ko‘chat o‘tqazildi. Shuningdek, 5905 gektar kollektor-drenaj atrofiga ekilgan nihollar yer egalari tomonidan parvarishlanmoqda. Maydonlardan samarali foydalanish hamda eksportbo‘y mahsulotlar yetishtirish hajmini oshirish maqsadida dala chetidagi maydonlarga sabzavot, poliz, dukkakli don ekinlari hamda moyli mahsulot yetishtirildi. O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi tomonidan maydonlarda yetishtirilgan 175 tonna mahsulotga ichki fitosanitariya sertifikatli bepul rasmiylashtirib berildi.

Farg‘ona viloyati o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi shahar va tuman bo‘limlari tomonidan aniq reja asosida “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, mavsumning noyabr-dekabr oylarida 401 gektar, kelgusi yilda 922 gektar maydondagi dala chetida sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

ELEKTRON RETSEPT

AMALDA QANDAY QO‘LLANADI?

Shu kunlarda Toshkent shahri va 15 ta tajriba-sinov hududida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan “Elektron retsept” tizimi jamoatchilik va soha mutaxassislari tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Negaki, endilikda yurtdoshlarimiz muayyan toifadagi dorilarni shifokor beradigan elektron imzo yoki QR-kod tushirilgan retseptsiz ololmaydi. Bu aholining xavotir va e’tiroziga sabab bo‘layotgani sir emas.

“Elektron retsept” tizimini joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad davolash xavfsizligini oshirish va bemorlar salomatligini himoya qilish, shifokorlarning dori tayinlashdagi mas’uliyatini kuchaytirish, dori tayinlash jarayonini tartibga solish, sog‘liqni saqlash tizimida raqamli hisobga o‘tish, shuningdek, kontrafakt yoki noto‘g‘ri qo‘llanilayotgan dori-darmon aylanmasi bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishdan iborat.

Xo‘sh, tizim amalda qanday ishlaydi, afzalligi nimadan iborat?

Bemor avvaliga oilaviy poliklinikada biriktirilgan shifokoriga murojaat qiladi. Shifokor retseptni elektron tarzda rasmiylashtiradi. Dorining nomi, dozasi, qabul qilish muddati — hammasi “DMED” nomli tibbiy axborot tizimiga kiritiladi.

Maksus retseptda elektron imzo yoki QR-kod ko‘rsatiladi. Dorixonachilar uni skaner qilish orqali tizimdan mahsulot nomini ko‘rishni, shu asosda mijozga sotishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-sentabrdaqi “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, jismoniy holati sabab tibbiyot muassasasiga kela olmaydigan va yotib qolgan bemorlar uchun dori-darmon yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillari tomonidan elektron retsept asosida olinadi.

Shu o‘rinda favqulodda holatlar, bolalarga, keksa yoshdagi shaxslarga va surunkali kasalligi bor bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatishda muammolar yuzaga kelmaydimi degan haqli savol tug‘ilishi mumkin.

— Hech kim zarur dori-darmonsiz qolmaydi. Ushbu toifadagi bemorlar alohida nazoratda bo‘ladi, — deydi tibbiyot fanlari nomzodi Aziza Xo‘jayeva. — Shuningdek, bemorga dorini shoshilinch ravishda yoki zudlik bilan berish zarur bo‘lgan taqdirda, retsept blankasining yuqori qismiga “cito” (shoshilinch) yoki “statim” (zudlik bilan) belgisi qo‘yiladi. Bunday belgilar retseptning



dori-xona va tibbiy amaliyotda shoshilinch zaruratini ko‘rsatadi.

Aholi tomonidan bildirilayotgan yana bir xavotir og‘riq qoldiruvchi dorilar bilan bog‘liq. Zarur paytda og‘riq qoldiruvchi dorilar uchun ham elektron retsept talab etiladimi?

Ta’kidlanishicha, og‘riqsizlantiruvchi dorilar retseptsiz dorilar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ulardan foydalanish mumkin.

Surunkali xastaligi bor bemorlarga ambulator sharoitda retsept yozilganda, anabolik faollikka ega ayrim dorilar istisno tariqasida va shifokor nazoratida 60 kunlik, ba’zi dorilar esa 90 kunlik davolash kursiga yetarli miqdorda belgilanishi ko‘rsatilgan.

Shuningdek, bunday bemorlarga elektron retsept bo‘yicha kafolatlangan paketga kiritilgan dori-darmon dorixonalar tomonidan reimbursatsiya dasturi asosida 30 kunlik davolash kursiga yetarli miqdorda bepul beriladi. Retseptsiz beriladigan dorilar ro‘yxatida allergiyaga qarshi dorilar ham mavjud.

Hayotimiz stresslardan xoli emas. Arzimagan sabab bilan asabiylik, yurakda



bezovtalik kuzatilishi bugun tabiiy holga aylangan. Biz odatda foydalanadigan korvalol va validol dorilari uchun retsept talab etilishi jarayonni bir oz murakkablashtirishi mumkin. Ammo xavotirga o‘rin yo‘q. Bu dori vositalarini retseptsiz dorixonalardan bemalol olish mumkin.

Chet el fuqarolari esa elektron retsept olish uchun umumiy shartlarda davlat tibbiyot muassasalarida ro‘yxatdan o‘tish huquqiga ega.

Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tunu kun ishlaydigan 1003 qisqa raqamli koll-markaz faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Fuqarolar u orqali “elektron retsept” tizimi bilan bog‘liq barcha masalalar bo‘yicha maslahat va tushuntirishlar olishi mumkin.

— Doimiy tushuntirish ishlari va qayta aloqa tizimi, shu jumladan, kecha-kunduz ishlaydigan 1003 koll-markazi yotoq rejimida va surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarning o‘z oilaviy shifokoriga murojaat qilishi, oilaviy shifokorga (tegishli hollarda



tor soha mutaxassislarga) masofadan turib murojaat qilgan holda elektron retsept olishi, ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda patronaj xizmati tashkil etilishi va zarur tibbiy xizmatlar uyda ko‘rsatilishi ta’minlanadi, — deydi virusolog shifokor Dildora Sekler. — Yotoq rejimida bo‘lgan bemorlar, shuningdek, surunkali kasallikka chalingan shaxslar maslahat va elektron retsept olish uchun oilaviy shifokoriga telefon orqali murojaat qilishi maqsadga muvofiq. Agar bemor oilaviy shifokorining telefon raqamini bilmasa, unda 1003 qisqa raqamiga qo‘ng‘iroq qilishi mumkin. Unga zarur yordam ko‘rsatiladi.

“Elektron retsept” tizimi asosida beriladigan dorilar ro‘yxati bosqichma-bosqich shakllantirilib, bunda alohida ro‘yxatlar ijtimoiy xavf va sohada yuzaga keladigan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda har bir bosqichda ekspertlar kengashi tomonidan tayyorlanib, tasdiqlanadi.

Tizimli ta’sirga ega antibiotiklar, sintetik antibakterial preparatlar hamda gormonal dorilar uchun elektron retsept majburiy bo‘lishini nazarda tutuvchi birinchi bosqich belgilanadi.

— Shifokorning elektron retseptlarni yozish bo‘yicha vakolati, jumladan, muayyan tibbiyot tashkilotida mavjud bo‘lmagan dorini tayinlash va keyinchalik dorixonalar farmatsevtlari tomonidan ushbu ma’lumotni tizimga kiritishning huquqiy asoslari mustahkamlanadi, — deydi Dildora Sekler. — Dorixonalarda retseptli dorini elektron retsept asosida berish (shu jumladan, bemorning JSHSHIRI yoki QR-kodi orqali) tartibi belgilanadi. Qolaversa, tizim to‘liq joriy etilgunga qadar va favqulodda vaziyatlarda istisno tariqasida qog‘oz ko‘rinishidagi retseptlarni rasmiylashtirish imkoniyati saqlab qolinadi.

Bemor yoki uning vakilida elektron retsept bo‘lmagan taqdirda, dorixona farmatsevtiga shaxsni tasdiqlovchi hujjat (qog‘oz yoki elektron) asosida JSHSHIRI kiritib, tizim orqali elektron retsept bilan tanishish va retsept bo‘yicha dorini berish huquqini taqdim etuvchi mexanizm belgilanadi.

Yotoq rejimidagi bemorlar elektron retsept olishda qiyinchilikka duch kelmasligi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilgan. Bunda bemor onlayn so‘rov yuborish yoki telefon orqali oilaviy shifokorga murojaat qilishi mumkin. Oilaviy shifokor elektron retseptni rasmiylashtiradi. Retsept rasmiylashtirilgandan so‘ng QR-kod bemorga yoki uning vakiliga yuboriladi (SMS, messenger yoki elektron pochta orqali).

Bu mexanizm yotoqdagi bemorlarga zarur dorini o‘z vaqtida olishni ta’minlaydi.

— Yurtimiz va chet el fuqarolarining tibbiy yordam va dorini olish (shu jumladan, shoshilinch holatlarda) huquqlari ta’minlanadi, shuningdek, tizimni joriy etish bosqichlari va dorilar ro‘yxatlari to‘g‘risida aholi rasmiy manbalar orqali xabardor qilib boriladi, — deydi Dildora Sekler. — Davolovchi shifokorning qaroriga ko‘ra, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarga 60 kungacha davolanish davrida xalqaro kasalliklar tasnifiga muvofiq kodlanadigan, surunkali kasalliklarni davolashda tayinlanadigan, shuningdek, anabolik faolligi bilan ajralib turadigan dori uchun, 90 kungacha davolanish davrida boshqa tayyor dori uchun (reimbursatsiya doirasida — 30 kungacha) retseptlar yozishning alohida tartibi belgilanadi.

Ushbu hollarda elektron retsept va tegishli QR-kodning amal qilish muddati belgilangan davolash kursi davriga muvofiq uzaytiriladi.

“Elektron retsept” tizimi, eng avvalo, davolash xavfsizligini oshirish, dori tayinlashda mas’uliyatni kuchaytirish va ularning aylanmasini tartibga solishga qaratilgan. Ushbu tizim doimiy monitoring asosida fuqarolar va tibbiyot xodimlarining fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Yangi tizim raqobat muhitini yaratib, shifokorlar tomonidan keraksiz dori-darmonlar yozib berilishi, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tmagan va aylanma yo‘llar orqali yurtimizga kirib kelayotgan dorilar sotilishining oldini oladi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

RAQAMLI SIVILIZATSIYA VA YOSHLAR KAMOLOTI

TA’LIM VA XAVFSIZLIKNING ZAMONAVIY PARADIGMASI

Rasuljon OTAMUROTOV,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Bugungi kunda insoniyat o‘z taraqqiyotining tamomila yangi, shiddatli va misli ko‘rilmagan bosqichini boshidan kechirmoqda. Bashariyat tarixida yuz bergan sanoat inqiloblari jamiyat hayotini qay darajada o‘zgartirgan bo‘lsa, ayni paytda biz guvohi bo‘layotgan hodisa — to‘rtinchi sanoat inqilobi, ya’ni raqamli texnologiyalar davri hayotimizning har bir jabhasiga chuqur va tezkor kirib bormoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘vor maqsadni oldimizga qo‘ygan ekanmiz, o‘z-o‘zidan mazkur jarayonning harakatlantiruvchi kuchi, shubhasiz, ilm-fan va zamonaviy ta’lim hisoblanadi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatni shakllantirish g‘oyalari zamirida ham, avvalo, yuksak salohiyatli, raqobatbardosh va zamon bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalash maqsadi mujassam.



Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: biz bugun farzandlarimizni raqamli kelajakka qanchalik to‘g‘ri tayyorlayapmiz? Maktab partasida o‘tirgan o‘quvchining qo‘lidagi zamonaviy qurilma uning rivojlanishiga xizmat qilayotgani yoki uni o‘zligidan uzoglashtirmoqdam?

Darhaqiqat, bugungi kun pedagogikasi oldida turgan eng dolzarb vazifa faqatgina bilim berish emas, balki o‘quvchilarda raqamli kompetentlikni, raqamli madaniyatni va axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Raqamli kompetentlikka shunchaki kompyuter yoki smartfondan foydalana olish qobiliyati sifatida qarash tor va yuzaki yondashuvdir. Aslida, mazkur tushuncha ancha keng qamrovli

ham shaxs ma’naviyatining ko‘zgusi sanaladi. Ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirish madaniyati, birovlarining shaxsiyatiga tegmaslik, mualliflik huquqini hurmat qilish kabi jihatlar raqamli fuqarolikning asosiy belgilaridir. Yoshlarimiz anglashi kerakki, virtual olam mas’uliyatsizlik hududi emas. Internetda qoldirilgan har bir iz, yozilgan har bir so‘z insonning sha’ni va obro‘sig‘a daxldor ekanini ularning ongiga singdirishimiz lozim. Milliy o‘zligimiz, qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni raqamli formatda ham saqlab qolish va targ‘ib etish, globallashuv to‘lqinida o‘zligimizni yo‘qotib qo‘ymaslik raqamli tarbiyaning bosh g‘oyasi bo‘lmog‘i kerak.

Ta’lim muassasalarida raqamli muhitni to‘g‘ri tashkil etish — o‘quv jarayoni samaradorligini



bo‘lib, u axborotni izlash, tahlil qilish, uning ishonchligini baholash hamda raqamli vositalar yordamida yangi mazmun yaratish layoqatini anglatadi. Bugungi o‘quvchidan internet tarmog‘idagi cheksiz ma’lumotlar ummonida “cho‘kib” ketmaslik, aksincha, o‘ziga kerakli durdonalarni ajratib oluvchi mohir g‘avvos bo‘lish talab etiladi. Afsuski, ko‘p holatlarda yoshlarimiz gadjetlardan faqat ko‘ngilochar vosita, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish yoki o‘yin o‘ynash manbai sifatida foydalanish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, texnologiya inson aqliy salohiyatini kengaytiruvchi, ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi qudratli vosita bo‘lishi kerak. Bizning asosiy vazifamiz esa iste’molchi avlodni bunyodkor avlodga aylantirish, ularga texnologiyani boshqarishni o‘rgatish va texnologiya ularni boshqarishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash masalasi alohida va o‘ta jiddiy mavzu. Globallashuv jarayoni tetlashgani sari axborot xurujlari, yot g‘oyalar va zararli kontentlarning yoshlar ongiga ta’siri xavfi ham ortib bormoqda. Internet tarmog‘i chegarasiz makon bo‘lgani bois, unda foydali ilm bilan birga milliy mentalitetimizga va axloqiy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan, bolaning ruhiy-emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’lumotlar ham behisob. Shu bois, o‘quvchilarda “raqamli gigiyena” va kibernetik xavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantirish hayotiy zaruratga aylanadi. Har bir bola shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberbullning atomatlarini payqash, notanish shaxslar bilan muloqotda ehtiyohtorlik choralarini ko‘rish qoidalarini puxta bilishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda raqamli tarbiya masalasi ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avvallari tarbiya deganda faqat jonli muloqotdagi o‘dab-axloq tushunilgan bo‘lsa, endilikda virtual olamdagi xulq-atvor qoidalari

oshirishning garovi. Maktablarning zamonaviy kompyuter texnologiyalari, yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlanayotgani, “Bir million o‘zbek dasturchi” kabi yirik loyihalar amalga oshirilayotgani soha rivojiga berilayotgan yuksak e’tibor namunasidir. Biroq moddiy-texnik baza bilan birga mazmuniy jihatga ham e’tibor qaratisimiz dardkor. O‘quvchilarga qurilmalardan foydalanishning “oltin qoidalarini” o‘rgatish, ekran qarshisida o‘tkaziladigan vaqtni me’yorlashtirish, gadjetlardan foydalanishda tana holatini to‘g‘ri tutish (ergonomika) kabi sog‘lom turmush tarzi elementlari ham raqamli ta’limning uzviy qismi bo‘lishi lozim. Zero, bizga nafaqat bilimli, balki jismonan va ruhan sog‘lom avlod kerak.

Zamonaviy o‘quvchi ma’lumotni an’anaviy darsliklardan ko‘ra, interfaol usullarda, vizual va audioformatlarda qabul qilishga ko‘proq moyillik bildirmoqda. Pedagoglarimizdan talab etiladigan jihat ushbu tendensiyaning to‘g‘ri ilg‘ash va dars jarayonini shunga moslashtirishdir. Raqamli vositalar o‘quvchining o‘rmini egallamaydi, aksincha, uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi, darsni qiziqarli va tushunarli qilishga yordam beruvchi ko‘makchi sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilarning endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini axborot maydonida to‘g‘ri yo‘naltiruvchi moderator, murabbiy vazifasini bajarishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, ota-onalarning raqamli savodxonligini oshirish masalasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Ko‘p hollarda ota-onalar farzandlarining internetdagi faoliyatidan bexabar yashamoqda yoki texnologik jihatdan ularidan ortda qolmoqda. “Raqamli tafovut” deb ataluvchi mazkur holat avlodlar o‘rtasidagi tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Ota-onalar farzandi uchun virtual olamda ham yo‘lboshchi, maslahatg‘oy bo‘lishi, taqiqlash yo‘li bilan emas, balki tushuntirish va to‘g‘ri yo‘naltirish orqali bolani tarbiyalashi lozim. Uyda

raqamli qurilmalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, oilaviy muloqot vaqtida telefonlarni chetga surib qo‘yish kabi oddiy, ammo samarali qoidalarini joriy etish oila mustahkamligiga va bolaning ijtimoiy ko‘nikmalari rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi yoshlar raqamli avlod vakillari bo‘lib, ular uchun texnologiya hayotning tabiiy bir qismidir. Biz ularni bu muhitdan ajratib ololmaymiz va bunday qilishimiz ham noto‘g‘ri bo‘lar edi. Asl maqsadimiz ularni tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish, axborotni saralash immunitetini hosil qilishdan iborat. O‘quvchi internetdagi har bir xabarga ko‘r-ko‘rona ishonmasligi, fakt va uydirmani ajrata olishi, turli manbalarni solishtirib ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart. Bu ko‘nikmalar nafaqat o‘qishda, balki kelajakdagi professional faoliyatda ham xavfsizlik garovi hisoblanadi.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sun’iy idrok texnologiyalari ta’limni individuallashtirish, har bir o‘quvchining qobiliyati va o‘zlashtirish darajasiga moslashgan o‘quv dasturlarini yaratish imkonini beradi. Tasavvur qiling, tizim o‘quvchining qaysi mavzuda oqshashini avtomatik aniqlab, unga aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish uchun qo‘shimcha manbalar va topshiriqlar taqdim etadi. Mazkur yondashuv har bir bolaning noyob iste’dodini to‘yog‘a chiqarishga ko‘maklashadi. Shu bois, pedagoglarning sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish malakasini oshirish, o‘quv dasturlariga ushbu yo‘nalishdagi yangiliklarni integratsiya qilish davr talabidir.

Texnologik taraqqiyot ma’naviy qashshoqlikka olib kelmasligi kerak. Raqamli dunyo qanchalik jozibador bo‘lmasin, u insoniy munosabatlarni, mehr-oqibat va jonli suhbat o‘rni bosa olmaydi. Biz yoshlarga

texnologiyani insoniylikdan ustun qo‘ymaslikni, gadjetlar odamlarni bir-biridan uzoglashtiruvchi devor emas, balki yaqinlashtiruvchi ko‘priklar bo‘lishi kerakligini uqtirishimiz zarur. Kitob mutolaasi, sport, san’at va tabiat hamohang ravishda raqamli hayot bilan parallel holda bolaning kundalik tartibidan joy olishi shart. Barkamol shaxs tarbiyasi faqat bir tomonlama bo‘lishi mumkin emas, u har tomonlama, uyg‘un rivojlanishni taqozo etadi.

Raqamli muhitda huquqiy savodxonlikni oshirish xavfsiz ta’limning muhim bo‘g‘inidir. O‘quvchilarning intellektual mulk, plagiat, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi to‘g‘risidagi qonunchilik normalarni xabardor bo‘lishi kerak. Birovning ijodiy mehnatini o‘zlashtirish, ruqsatsiz javob ko‘chirish keldatq axloqiy, balki huquqiy jumboqlarini ham nafaqat chiqarishni yoshlikdanoq anglash adolati va qonun ustuvor jamiyat qurish poydevori sanaladi.

Yana bir muhim jihat, “raqamli iz” masalasidir. Yoshlar bugun internetga joylayotgan har bir surat, yozayotgan har bir sharh ularning kelajakdagi karyerasiga ta’sir qilishi mumkinligini doim ham o‘ylab ko‘rmaydi. Ko‘plab xalqaro kompaniyalar, nufuzli universitetlar nomzodlarni tanlashda ularning ijtimoiy tarmoqlardagi profilalarini o‘rganib chiqishi sir emas. Shuning uchun o‘quvchilarga o‘zining ijobiy raqamli imijini shakllantirish, kelajakka sarmoya sifatida toza va mazmunli raqamli tarix yaratish kerakligi tushuntirilishi lozim. Bu shaxsiy brending asoslari bo‘lib, zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Raqamli ta’lim va raqamli tarbiya bir kunlik yoki bir yillik ish emas, balki uzluksiz, tizimli va hamkorlikdagi jarayondir. Davlatimiz, ta’lim tizimi, ota-onalar va keng jamoatchilik birgalikda harakat qilsak, yoshlarimizni raqamli dunyoning faol, mas’uliyatli va yaratuvchan a’zolari etib tarbiyalashga erishamiz.

“SAODAT”ning SAODATBAXSH saboqlari



KO'NGILLARGA MA'RIFAT, ADABIYOT VA TARBIYA ULASHGAN NASHR

Boshlanishi 1-betda

Bugun mamlakatimizda xotin-qizlarning iqtidorini ro'yogba chiqarishiga ko'maklashish uchun qulay sharoit yaratish, ijtimoiy hayotda faollik ko'rsatayotgan opa-singillarimizni munosib rag'batlantirish borasida keng qamrovli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, turli sohalarida imtiyoz va imkoniyatlar yaratish uchun ko'plab amaliy mexanizmlar yo'lga qo'yilmoqda. Bu sa'y-harakatlar xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy faolligini oshirmoqda.

Shuningdek, oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishidagi keng ko'lamli islohotlar inson qadrini ulug'lash, oila tinchligi va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilayotir. Bugun mana shu mavzularning barchasi “Saodat” sahifalarida o'z ifodasini topmoqda.

Yig'ilishda so'zga chiqqanlar jurnal mundarijasida minglab xotin-qizlarning orzu-intilishi, taqdiri va yutuqlari aks etib, haqiqiy ma'naviyat va ma'rifat minbariga aylangan, tahririyat jamoasining fidokorona mehnati va doimiy ijodiy izlanishlari tufayli jurnal davr bilan hamqadam bo'lib, milliy qadriyatlarimizni zamonaviy ruhda o'quvchilarga yetkazib kelayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi v. b. Xolmurod Salimov, “Saodat” jurnali bosh muharriri Munavvara Usmonova va boshqalar bugungi globalashuv sharoitida “Saodat” jurnali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani va munosib rag'batlantirilayotganini qayd etdi.

Tadbirda tahririyat jamoasiga Prezidentimizning maxsus sovg'asi — “BYD Chazor” avtomashinasi topshirildi.

Gulichehra DURDIYEVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

“SAODAT” SANAMLARI

“Saodat” jurnalining 100 yoshiga

Sizni o'ylab qalbm tutgan qo'rd a kuydim, Aytar so'zim aytmay turib, bolin tuydim, Onam, opam, singlim debon sizni suydim, Qoshlaridan rang olgandir qalamlari, “Saodat”ning sadoqatli sanamlari.

Vatan desa, quyoshlarga qarqoqlari, Duo qilsa dur tutadi dunolar kuni, Ey millatim ma'rifatin chiroqlari, Suvdan tiniq muhabbatning mahramlari, “Saodat”ning sadoqatli sanamlari.

“Saodat”ning tamal toshin qo'ygan ayol, “Saodat”ning onasidek suyg'an ayol, Bu Tojixon Shodiyevadir — so'zi hilol, Matbuotning jarohatin malhamlari, “Saodat”ning sadoqatli sanamlari.

Oydini bor, Sobirasi, Xosiyati, Maqsadlari ezigulikning hidoyati, “Saodat”ning sadoati xush niyati, Esza hamki o'z davrining alamlari, Sobit turgan “Saodat”ning sanamlari.

Zulfiyaning nomi asli ayol nuri, Unda vaf o malikasin visol nuri, Shoir Hamid Olimjonning xayol nuri, Sog'inch to'kdi, sochlarining taramlari, “Saodat” bu — Zulfiyaning sanamlari.

“O'tgan asrning 70-80-yillarida “Saodat” jurnali respublikamizning ayol ijodkorlarini o'z atrofida birlashtirgan, qalamkashlar intilgan o'ziga xos bir orbitaga aylangan edi”, deydi O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov.

Muhtarama ULUG'OVA, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi



Bunchalar topib, o'xshatib, ayni dalillarga boy mohiyatni tashbehlal ifodalash faqat Ibrohim G'afurovga xos degim keladi. Zero, bu ta'rifning zohiri juda chiroyli bo'lgani kabi botini ham ko'p jihatdan ibratlarga boy.

1925-yil dekabr oyida “Yangi yo'l” nomi bilan tashkil etilgan, 1936-yildan “Yorqin turmush”, shu yildan “Yorqin hayot”, 1950-yildan “O'zbekiston xotin-qizlari” va 1966-yildan “Saodat” deb atalgan jurnalning 100 yilligi nafaqat mamlakatimizdagi xotin-qizlar, balki barcha aholi uchun qutlug' sana hisoblanadi. Zero, oilada ona, sobiq sho'rolar davrida paxta plantatsiyalarida ketmonchiyu terimchi, sanoat tashkilotlarida erkaklar bilan tepapeng mehnat qilgan ishchi, urush yillarida topganini frontga yuborgan fidoyi, urushdan keyingi yillarda olis jang maydonlarida shahid ketgan otasi, bolasi, akasi, ukasidan judolik azobu iztiroblarini sabru qanoat, mehnatu ijodkorlik bilan yenggan matonatli ayol “Saodat”ning qahramonlari bo'lgan.

Bir asr davomida yurtimizdagi barcha xonadonlarga har oyda “Saodat” jurnali kirib borgan haqidagi ma'lumotda zarracha mubolag'a yo'q. Qo'shni respublikalarda ham minglab muxlis-mushitariysi bor edi “Saodat”ning.

Bu qadar ommaviylikning sababi jurnal ayollar hayotiga, qalbiga, ularning o'ziga xos dunyosiga kirib borganidadir. “Saodat” har doim farzandini sog'lom, chiroyli tarbiyali qilib ulg'aytirishni istagan ona, ro'zg'orining osoyishta, saranjom-sarishta bo'lishi uchun tinib-tinchimagan muhabbatli, sadoqatli beka, onasiyu qaynonasini rozi qilib baxtiyor bo'lgan qizu kelin, xullas, ayol dunyosiga yaqin sirdosh, hamdamu hamqadam bo'lib keldi.

Jurnal tarixini, unda faoliyat ko'rsatgan hurmatli kasbdoshlarimiz shaxsini o'rganganing sayin bir fikr qat'iy lashib boradi. Bu dargoh mehru oqibatli, e'tiborli, ziyoga intilgan, har qanday vaziyatda nonini bo'lishib yeyishga tayyor, o'ng qo'li qilgan yaxshiligini chap qo'lga sezdirmaslikka urinadigan ijodkorlar maskani bo'lib kelgan. Bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishlagan Xolida opa Ahrorova, Alloh rahmat qilsin, bunday voqeani gapirib bergandim:

“Urushdan keyin Peterburgdan yurtimizga evakuatsiya qilingan jurnalist Lyubov Strelsova biz bilan ishlay boshladi. U jismonan ham, iqtisodiy jihatdan ham juda toliqqan edi. Bahonayu sabablal o'ylab unga yordam berardik. Poyabzali ham juda eski edi, ammo u nechanchi o'lchamli oyoq kiyimi kiyishini bilmasdik. Hammamiz bitta xonada ishlardik. Bir kuni gaplashib o'tirganimizda bosh muharririmiz Zulfiya opa xuddi qiziqqan kabi barchaning oyoq kiyimi o'lchamini so'rab chiqdi. Shunday qilib, Lyubaning oyoq o'lchamini bilib oldik va unga poyabzal xarid qilib, ish stolingni qutichasiga solib qo'ydik. Ertasiga ishga kelgan Strelsova joyiga o'tirib, stoli qutisi eshigini ochib qaradi-yu, ko'zlaridan duvullab yosh oqib, o'pkasi to'lib yig'lay boshladi. Shu zahoti Zulfiya opa unani yoniga borib, yelkasiga qo'llarini qo'ydi:

— Xudo haqqi, Lyuba, bizni kechiring, sizni sira xafa qilmoqchi emasdik...

— Yo'q, yo'q, xafaligimdan yig'lamayapman, — deb gapni bo'ldi ayol. — Men shunday ajoyib, mehribon, e'tiborli odamlarning orasiga kelib qolganimdan, xursandchiligimdan yuragim to'lib ketdi...”

“Saodat” sahifalari hamma davrlarda yoshi, qiziqishi, sohasidan qat'i nazar, barcha o'quvchilarini befarq qoldirmaydigan, ezigulik izlaganlarga



ezgulik ulashadigan ramziy dargoh bo'ldi. Ayniqsa, farzand va qizlarning estetik-gigiyenik tarbiyasi, bichuv-tikuv, pazandalik mavzularidagi maqolayu mutaxassislar maslahatlariga 50, 40, 30 yil muqaddamgi “Saodat”xonlarning qiziqishi, ixlosini bugungi kun opa-singillarimizga namuna qilsa arziydi.

Bugun hatto o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisi bo'lgan ayrim yoshlarning adabiyotimizdagi yangiliklar, taniqli ijodkorlar ijodidan bexabarligidan ajablanasiz. Ammo katta avlod vakillarining juda ko'pi she'riyatga, badiiy asarlarga qiziqishini subhatlarda darrov anglaysiz. Ular “Saodat”, “Guliston”, “Sharq yulduzi” jurnallari sahifalarida



o'qigan she'rleri, hikoyalarini eslaydi, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov, Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva, yana ko'plab yozuvchi va shoirlarni mana shu nashrlar sahifasida bosilgan asarlari orqali taniganlarini aytadi. Chingiz Ahmadov, O'rol Tansiqboyev, Rahim Ahmedov, Bahodir Jalolov kabi mo'yqalam ustalarining nozik chizgilariga uyg'un go'zallik, nafosat tarbiyalari “Saodat” sahifalaridan millionlab qalblarga ko'chdi. Aytish mumkinki, o'tgan asming uchinchi choragida adabiyotga kirib kelgan va ijodi bilan o'z o'mini topgan ayol qalamkashlardan aksariyatining birinchi qadami shu jurnal sahifalaridan boshlagan.

Zabardast so'z ustasi, adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurovning so'zimiz avvalida keltirilgan fikrlari “Saodat” jurnalining o'zbek adabiyoti, jurnalistikasi rivojiga qo'shgan salmoqli hissasining e'tirofidir. Bu fikrni 1977-1990-yillar davomida shu dargohda bo'lim boshlig'i, mas'ul kotib vazifasida ishlagan yillarimda ko'rganlarim, eshitganlarimga asoslanib izohlamoqchiman.

O'sha yillari o'z davrining oydinlaridan bo'lgan taniqli adiba Oydin Sobirova hamda zahmatkash, teran fikrli adabiyotshunos olim Muzayyana Alaviyaning tarbiyasini olgan O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim nashrning bosh muharriri bo'lib ishlardi. Zulfiyaxonim ayni Ibrohim G'afurov

dalilli ma'lumotlar olishni tayinlar edi. Yana qo'shib qo'yardilar: “Tanlagan qahramoningiz so'zi bilan ishi bir joydan chiqadigan odamlar bo'lsin, aks holda, matbuotning obro'si to'kiladi”.

“Saodat” taniqli yozuvchi, shoirlar bilan yosh qalamkashlarning ijodiga tepa-teng e'tiborli edi. Ular bilan aloqa rishtalari hech qachon uzilmadi. Zulfiya opa bo'limlar xodimlaridan o'z yo'nalishi bo'yicha ijod qiladigan barcha ijod ahlini doim yo'qlab turishni, ulardan yangi asarlar kutayotganimizni eslatishni talab qilardi. “Hay, Dilbar Hamzaxo” jayevadan nimaga darak yo'q, yozinglar”, “Men bu kecha Muhammadjon Rahmonning yangi to'plamini o'qib chiqdim. Ajoyib! Uni redaksiyaga taklif qilinglar, yangi she'rilaridan olib kelsin”, “Tog'ay Murod degan yosh olibitning qissasini o'qiydirlaringmi? Bu yoshlar boshqacha, dunyo adabiyotini yaxshi biladi, biz unday yozolmaymiz. Shu yigitdan “Saodat”ga hikoya so'ranglar...” Bunaqa e'tiroflar, chorlovlar, takliflar tahririyat hayotining oddiy hodisalari edi.

Bu jamoaga kelgan har bir yosh ijodkor Xolida Ahrorova, Nasima Yusupova, Laylo Salimjonova, San'atxon Mahmudova, Roza Sayfiyeva, Olimjon Hakimov (hammalarini Alloh rahmatiga muassar etsin!) kabi yoshi ulug' va sohada o'zining katta o'rni bo'lgan ustozlardan jurnalistik qandaydir bir

imtiyoz, mashhurlikka o'chlik yo'li emas, balki xalqqa, vatanga ixlos, atrofimizdagi turfa soha vakillari kabi sadoqat bilan xizmat qilish mas'uliyati ekanini o'rgandi.

“Saodat”ning yana bir sabog'i... Hamkasblar bosh muharrir huzurida edik. Shunda bir sabab bilan Zulfiya opa: “Ayolni tushunmaydigan, uni qo'llab-quvvatlamaydigan, zarur bo'lganda yordam bermaydigan odamga “Saodat” jurnalida joy yo'q”, degandi. O'shanda yosh edim, ulg'ayanim sari bu fikr mohiyatini, jamiyat hayotida qanchalar muhimligini chuqurroq anglab borgandekman. Bu



gap jamiyatning faoliyati, mas'uliyati xotin-qizlar taqdiri bilan bog'liq bo'lgan kattayu kichik idoralar, tashkilotlar, uyushmalar xodimlariga bevosita taalluqli, nazardim. Kuzatishlar, o'rganishlardan angladimki, jamiyatimizdagi juda ko'p muammolar ildizlari ayolni, onani tushunmaslik, hurmat qilmaslik, mensimaslik illatidan jumv ichadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhojot, siyosiy imkoniyatlari cheklangan, ma'naviy tazyiqlarga uchragan, homilador, keksa yo kasalmand xotin-qizlarning aynan o'z qavmi — ayrim ayol rahbarlar tomonidan chekkaga surib qo'yilishi, yordamga loyiq ko'rilmalik hollari kam uchrasada, e'tiqodimiz, birladimligimiz, o'zlikka sadoqatimizning darz ketgan nuqtalariga o'xshaydi...

Zulfiya opadan hayotda ham, yozganda ham so'zga e'tiborlili kni o'rganish mumkin edi. Ko'p gapirmasdi, uning na nutqida, na so'zlash ohangida “Men falonchiman”, degan ma'no hech qachon bo'lmagan. Ba'zan bosh muharrir tahrirdan chiqqan maqolamizdagi tagiga chizib qo'yilgan so'zlarning biz dastlab yaxshilab o'ylab ko'magan noo'rin, qo'shimcha boshqacha ma'no beradigan jihati ham borligini anglab qolardik. Lekin biror marta Zulfiya opa nimadandir

noroz bo'lib ovozin baland ko'targani, kinningdir xatosi uchun jazolaganini eslolmayman. Barcha ishlarga o'zi davlat va insoniy qonunlar talablaridan chiqmagan holda yondashgani kabi biz ham shu yo'ldan borishga harakat qilardik...

Fikrlarim isboti uchun bevosita o'zim guvoh bo'lgan jarayonlardan ayrim misollar keltirdim. Yarim asrlik jurnalistik faoliyatimning ilk darsxonasi “Saodat” jurnali tahririyati bo'ldi, olgan saboqlarim hamon asqatadi.

“Saodat”ni sadoatmand nashr etgan ustozlar an'analarni O'zbekiston xalq shoirlari Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva kabi taniqli ijodkorlar bosh muharrir sifatida davom ettirdi. Ayni kunda ham sevimli jurnalimiz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira va jonkuyar jurnalist Munavvara Usmonova rahbarligidagi jamoa bilan yangi davrning yangi qahramonlarini elga tanitmoqda. Axloq-u odob mavzusidagi maqolalar, badiiy asarlar namunalari bilan ayollar ma'naviyatini, ma'rifatini yuksaltirishga faol hissa qo'shmoqda.

Yuz yoshing muborak, qadrdonim “Saodat”! Mustaqil O'zbekistonning onalari, opa-singillari, qizlari taqdiri ko'zgusi bo'lgan ardoqli nashrimizning bugungi bekatlari yangi asrlarga har doimgidek ochiq yuz, ilhom bilan kirib borishi uchun qutlug' ostona bo'lsin!